Bafoyeva Roxila Valijon qizi (Osiyo xalqaro universiteti, PhD, tadqiqotchi, tayanch doktorant; rokhilabafaeva050796@gmail.com)

POSTMODERN ADABIYOTDA FRAGMENTATSIYA VA MUALLIFNING NISBIYLASHUVI: RAMZIYLIK VA INTERTEKSTUALLIK ASOSIDA TALQIN

Annotatsiya. *Har bir badiiy asar ijodiy jarayon mahsuli sifatida kitobxon bilan yuzlashgan zahoti yangi ma'nolar qatlamini namoyon etadi. Uning talqini va mazmuniy jilosi kitobxonning badiiy-estetik saviyasi bilan chambarchas bog'liq holda o'zgaradi. Mazkur maqolada modernizm va postmodernizm o'rtasidagi muallif konsepsiyasi farqi tahlil qilinadi: modernizmda muallif markaziy figuraga aylansa, postmodernizmda muallif mavqei nisbiylashib, talqin jarayoni kitobxon tafakkuri bilan belgilanadi.*

Kalit so'zlar: *postmodernizm, fragmentatsiya, intertekstuallik, dekonstruksiya, metafiktsiya, amziylik.*

Бафаева Рохила Валиджон кизи (Азиатский международный университет соискатель степени PhD, докторант базовой докторантуры; rokhilabafaeva050796@gmail.com)

ФРАГМЕНТАЦИЯ И РЕЛЯТИВИЗАЦИЯ АВТОРА В ПОСТМОДЕРНИСТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ НА ОСНОВЕ СИМВОЛИЗМА И ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТИ

Аннотация. *Каждое художественное произведение как результат творческого процесса при встрече с читателем раскрывает новые смысловые пласты; его интерпретация и содержательная многогранность напрямую зависят от художественно-эстетического уровня читателя. В данной статье анализируется различие авторской концепции в модернизме и постмодернизме: если в модернизме автор занимает центральное место, то в постмодернизме его статус нивелируется, а процесс интерпретации определяется читательским сознанием.*

Ключевые слова: *постмодернизм, фрагментация, интертекстуальность, деконструкция, метафикция, символизм.*

Bafoyeva Roxila Valijon qizi (PhD Candidate (Basic Doctoral Student), Asia International University; rokhilabafaeva050796@gmail.com)

FRAGMENTATION AND THE RELATIVIZATION OF THE AUTHOR IN POSTMODERN LITERATURE: AN INTERPRETATION BASED ON SYMBOLISM AND INTERTEXTUALITY

Annotation. *Every literary work, as a product of the creative process, reveals new layers of meaning when it encounters a reader; its interpretation and semantic richness depend directly on the reader's aesthetic and artistic competence. This article analyzes the difference between the concept of authorship in modernism and postmodernism: while the author occupies a central position in modernism, in postmodernism the author's status becomes relativized, and interpretation is shaped by the reader's consciousness.*

Keywords: *postmodernism, fragmentation, intertextuality, deconstruction, metafiction, symbolism.*

Kirish. Postmodernizm estetikasi voqelikni bevosita bayon etishdan ko'ra, unga ishora qilish tamoyiliga tayanadi. Bu oqimda hech bir hodisa yoki tushuncha qat'iy va yakuniy ma'noda ifodalanmaydi; aksincha, u ramz va ishoralar orqali ochiladigan ko'pqatlamli mazmun sifatida namoyon bo'ladi. Natijada badiiy asarni anglash jarayonida markaziy o'rin kitobxonga beriladi. O'quvchining tafakkur darajasi, idrok etish salohiyati va estetik tayyorgarligi asarni tushunish yoki tushunarsiz deb baholash mezoniga aylanadi. Agar badiiy asarni yo'l sifatida tasavvur qilsak, postmodernizmga ko'ra, undagi harakatlantiruvchi kuch skriptordir, ya'ni cheksiz lug'atlar va matnlar qatlamidan yangi matn hosil qiluvchi subyektdir. Modernizmda asar yaratuvchisi muallif sifatida markazga qo'yilsa, postmodernizmda yaratuvchi tushunchasi skriptor timsolida talqin qilinadi. Biroq asarni anglash jarayonida asosiy kuch asardan voqelikka tomon harakat qiluvchi kitobxon hisoblanadi. Talqin jarayoni aynan o'quvchining faol ishtiroki bilan yuzaga chiqadi. Postmodernistik asarlarning mazmuni ramziy xarakterga ega bo'lib, u murakkab va ko'pqatlamli tuzilishga ega. Ramz go'yoki kalavalangan ip singari: agar uning to'g'ri uchi topilsa, mazmun qatlamlari izchil ochila boradi va keng ma'no maydonini egallaydi, aks holda, asar ichki sirlarini saqlagan holda anglanmasdan qolishi mumkin. Shu jihatdan qadimdan muhim hisoblangan ramziylik modernizm va postmodernizmda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay, aksincha, yanada chuqurroq mazmun kasb etadi. Postmodernizm ko'plab an'anaviy tushunchalarni inkor etgan bo'lsa-da, ramziy tafakkur tamoyilini saqlab qoldi va uni yangi talqin darajasiga olib chiqdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Postmodern adabiyotga oid ilmiy manbalarda uning estetik va falsafiy mohiyati, avvalo, parchalanish va yaxlitlikning inkori bilan izohlanadi. Tadqiqotchilar postmodern asarni mazmunan sochma, fragmentar tuzilishga ega matn sifatida talqin qiladilar. Shuningdek, u tar-

tibsizlik, intertekstual aloqadorlik va haqiqatga nisbatan shubha kabi mezonlarni postmodern tafakkurning muhim belgilaridan biri sifatida qayd etadi. Jean-Frankois Lyotard esa postmodernizmni "katta rivoyatlar" yoki "meta-rivoyatlar"ga qarama-qarshi hodisa sifatida ta'riflab, bilim va haqiqatning mutlaq shaklini inkor etadi. Uning fikricha, zamonaviy jamiyatda universal haqiqat da'volari o'z kuchini yo'qotgan, natijada bilim ko'plab kichik diskurslar doirasida shakllanadi. Fredrik Jameson postmodernizmni kech kapitalizmning madaniy mantiqi sifatida talqin qilib, uni iste'molchilik jamiyati bilan bog'laydi. Unga ko'ra, postmodern madaniyat yuzaki tasvirlar, kollaj va sitatalar orqali ishlaydi hamda tarixiy chuqurlikni yo'qotgan estetikani namoyon etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot postmodern adabiyotning nazariy tamoyillari va badiiy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks yondashuv asos qilib olindi. Avvalo, postmodernnizm vakillari tomonidan ilgari surilgan haqiqatning nisbiyligi, ko'p talqinlilik hamda barqaror xarakter konsepsiyasining inkori haqidagi qarashlar nazariy-metodologik tayanch sifatida qabul qilindi. Tadqiqotda har qanday hodisaning yagona talqinga sig'masligi va matnning ochiq tuzilma ekanligi tamoyili asosiy metodologik prinsip sifatida belgilandi.

Ish jarayonida qiyosiy-tahliliy metod qo'llanilib, modernizm va postmodernizm o'rtasidagi estetik farqlar, xususan mualliflik, xarakter, haqiqat va talqin masalalari solishtirildi. Shuningdek, strukturaviy va dekonstruktiv yondashuv asosida matn ichidagi o'ynoqilik, ishonchsiz hikoyachi hamda metafiksiya unsurlari tahlil qilindi. Bu metod postmodern asarlardagi qatlamlilik, intertekstual bog'lanish va ramziy ma'no hosil bo'lish jarayonini ochib berishga xizmat qildi. Nazariy qarashlarni amaliy jihatdan asoslash maqsadida Umberto Ekoning "Il nome della rosa" romani hamda Patrik Süskindning "Das Parfum" asarlari misol tariqasida tanlab olindi. Ushbu asarlar ikki tomonlama kodlashtirish, ya'ni, elitar va ommaviy qatlamning uyg'unlashuvi tamoyili asosida tahlil qilindi. "Il nome della rosa" romanida detektiv sujet va chuqur falsafiy-ramziy qatlamning uyg'unligi, shuningdek, o'rta asr qo'lyozmalari va intertekstual ishoralar orqali bilim, haqiqat va talqin masalalarining ko'pqatlamli talqini o'rganildi. Asardagi ishonchsiz hikoyachi, ironik uslub hamda yashirin semantik strukturalar dekonstruktiv metod asosida sharhlandi.

Tahlil va natijalar. Tahlil jarayonida postmodern adabiyotning asosiy xususiyatlari badiiy matnlar misolida ko'rib chiqildi. Xususan, Richard Bachning 1970-yilda yaratilgan "Jonathan Livingston Seagull" (Parvoz zavqi) asari ramziy-falsafiy qatlam asosida tahlil qilindi. Asarda qush obrazi va parvoz timsoli insonning erkinlikka intilishi, o'z qiyofasini saqlab qolish, jamiyatdagi adolatsizlik va yovuzlikka qarshi ichki kurashi sifatida talqin qilindi. Parvoz bu yerda nafaqat jismoniy harakat, balki ruhiy yuksalish, mavjud chegaralarni buzish va o'zlikni anglash jarayonining badiiy ifodasidir. Natijada asar postmodern ramziylik va allegorik tafakkurning yorqin namunasi sifatida baholandi.

Postmodern adabiyot vakillari orasida Milan Kundera, Italo Calvino va Milorad Pavik kabi ijodkorlar alohida o'rin tutadi. Ularning asarlarida shaxsiyat, xotira va voqelik o'rtasidagi murakkab munosabatlar fragmentar tuzilma hamda o'yin estetikasiga asoslangan holda yoritiladi. Tahlil natijalariga ko'ra, postmodernizm an'anaviy metodlarni inkor etib, fragmentatsiya, intertekstuallik, dekonstruksiya va ko'p ma'nolilikni asosiy tamoyil sifatida ilgari suradi. "Muallifning o'limi" konsepsiyasi, janr chegaralarining buzilishi, ironik va referensial uslub, ikki tomonlama kodlashish kabi xususiyatlar postmodern matnning yetakchi belgilaridir. Postmodern adabiyot namunalari sifatida Tomas Pinchonning "The Crying of Lot 49", Ulug'bek Hamdamning "Sabo va Samandar", Umberto Econing "Il nome della rosa", Patrick Süskindning "Das Parfum" kabi asarlar ko'rib chiqildi. Ushbu matnlar umumiy jihatdan ko'p qatlamli semantika, o'yin estetikasi va global madaniy kontekst bilan ajralib turadi.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, postmodernizm globallashuv, texnologik taraqqiyot va madaniy xilma-xillik sharoitida shakllangan hamda hanuz o'z ta'sirini yo'qotmagan adabiy-falsafiy oqimdir. U tartibsizlikni inkor etmaydi, balki uni estetik mezonga aylantiradi, haqiqatni yagona nuqta emas, ko'p oynali prizma sifatida ko'radi. Natijada postmodern adabiyot zamonaviy tafakkur, madaniyatlararo muloqot va badiiy tajriba maydonida barqaror ahamiyat kasb etayotgan hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, postmodernizm adabiy oqimi an'anaviy estetik mezonlarni qayta ko'rib chiqib, haqiqatning nisbiyligi, ko'p ma'nolilik va fragmentar tafakkurni markazga olib chiqadi. Ushbu oqimda matn yopiq tizim emas, balki ochiq semantik maydon sifatida namoyon bo'ladi. "Muallifning o'limi" konsepsiyasi orqali ijodkorning mutlaq hukmronligi cheklanadi va talqin jarayonida kitobxon asosiy subyektga aylanadi.

Tahlil qilingan asarlar, jumladan Richard Bachning "Jonathan Livingston Seagull", Paulo Coelhoning "The Alchemist", Umberto Econing "Il nome della rosa", Patrick Süskindning "Das Parfum" hamda Thomas Pynchonning "The Crying of Lot 49" kabi namunalarda ramziylik, intertekstuallik, ikki tomonlama kodlashish, ironik uslub va janr chegaralarining buzilishi postmodern estetikani belgilovchi asosiy tamoyillar ekanligi aniqlandi.

Takliflar:

1. Postmodern adabiyot namunalarini o‘rganishda dekonstruktiv, semiotik va intertekstual tahlil metodlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2. Modernizm va postmodernizm o‘rtasidagi vorislik va farqlarni aniqlash maqsadida qiyosiy tadqiqotlarni kengaytirish zarur.

3. O‘zbek adabiyotida postmodern unsurlarni aniqlash va ularni jahon adabiyoti kontekstida o‘rganish istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

4. Postmodern asarlarni talqin qilishda kitobxon kompetensiyasini oshirishga qaratilgan metodik qo‘llanmalar va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish lozim.

5. Globallashuv sharoitida madaniyatlararo intertekstual aloqalarni o‘rganish postmodernizmning yangi qirralarini ochishga yordam beradi.

Shunday qilib, postmodernizm adabiy tafakkur tarixida muhim bosqich bo‘lib, u nafaqat badiiy shakl va mazmunni, balki insonning olamni anglash usullarini ham tubdan yangilagan estetik hodisa sifatida ilmiy tadqiqotlarda izchil o‘rganishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Hutcheon L. A Poetics of Postmodernism: History, Theory, Fiction. Routledge (1988), p. 283.

(2). Eco U. Postscript to the Name of the Rose. Harcourt Brace Jovanovich (1984), p. 88

(3). Lyotard J.-F. The Postmodern Condition. A Report on Knowledge (G. Bennington & B. Massumi, Trans.). University of Minnesota Press (1984), p. 114.

(4). Jameson F. Postmodernism, or, The Cultural Logic of Late Capitalism. Duke University Press.

(5). (1991), p. 460.

(6). Derrida J. Of Grammatology (G.C.Spivak, Trans.). Johns Hopkins University Press. (1976), p. 354.

Muxammedova Xulkar Eliboyevna (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti (Dsc), filologiya fanlari doktori, professor v.b.; E-mail:xulkarmuxammedova@uzswlu.uz)

GOTIK ROMAN JANRI TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya. *Maqola zamonaviy ingliz adabiyotida ijod qilayotgan adiba Syuzen Hill ijodida XIX asr gotika roman janri xususiyatlarining transformatsiyasiga bag‘ishlanadi. Uning ijodida aks etgan gotik roman janriga xos elementlar XIX asr romanlarida tasvirlanganligi bilan e’tirofga loyiq. Uning ijodiga mansub “Qora libosli ayol” asari adabiyotshunoslar tomonidan turlicha baholanganligi kuzatiladi.*

Kalit so‘zlar: *asar, taqdir, obraz, xususiyat, adiba, ingliz, gotik, transformatsiya.*

Мухаммедова Хулкар Элибоевна (УзГУМЯ, доктор филологических наук; E-mail: xulkarmuxammedova@uzswlu.uz

ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖАНРА ГОТИЧЕСКОГО РОМАНА

Аннотация. *Статья посвящена трансформации особенностей жанра готического романа XIX века в творчестве современной английской писательницы Сьюзен Хилл. Отраженные в её произведениях элементы готического романа заслуживают признания благодаря тому, что они созвучны описаниям в романах XIX столетия. Примечательно, что её произведение «Женщина в чёрном» получает неоднозначные и разносторонние оценки со стороны литературоведов.*

Ключевые слова: *роман, судьба, образ, писательница, англичанин, готический, трансформация.*

Mukhammedova Khulkar Eliboyevna (UzSWLU, associate professor, Doctor of Science; E-mail: xulkarmuxammedova@uzswlu.uz)

THE TRANSFORMATION OF THE GOTHIC GENRE

Annotation. *The article is dedicated to the transformation of 19th-century Gothic novel characterristics in the works of the contemporary English writer Susan Hill. The elements of the Gothic genre reflected in her writing are noteworthy for their alignment with the descriptions found in 19th-century novels. It is observed that her work, The Woman in Black, has been evaluated in diverse ways by literary critics*

Key words: *novel, fate, image, feature, writer, English, gothic, transformation.*

Kirish. Syuzen Hill zamonaviy ingliz adabiyotining gotika janrida ijod qiayotgan adiba hisoblanadi. U klassik gotika an'analarini zamonaviy romanlarda transformatsiya qilganligini kuzatish mumkin. Uning ijodida gotika shunchaki qo‘rqinchli elementlar yig‘indisi emas, balki inson ruhiyatining qorong‘u qatlamlarini ochib beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Yozuvchining “Woman in Black – Qora libosli ayol” asari aynan XIX asrga xos bo‘lgan gotika janri elementlari transformatsiyasini o‘zida aks ettiradi. Gotika roman adabiyotshunoslik lug‘atlarida quyidagicha **“**Gotik roman yoki dahshatlar romani XVIII asrning ik-